

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60712500- Transport vositalari muhandisligi
(avtomobil transporti) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining
malaka talablari

Toshkent-2023

VEP OJMTB
№ 367
21 08 2023

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat transport universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21»
08 dagi 364- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 60712500 - <i>Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 60712500- <i>Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining qo'llanishi	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 60712500- <i>Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. 60712500- <i>Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2. 60712500- <i>Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3. 60712500- <i>Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. 60712500- <i>Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2. 60712500- <i>Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	7
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.4. Kvalifikatsiyalar.....	9
Bibliografik ma'lumotlar.....	10
Kelishuv varag'i	11

1. 60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60712500-Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1.60712500- Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) – “Muhandislik ishi” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u avtomobil transporti vositalarini ishlab chiqarish, ulardan foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning samarali jarayonlarini hamda ularga innovatsion texnologiyalarni qo'llashga yo'naltirilgan metodlar va vositalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60712500-Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

– avtomobil transporti, ularni ishlab chiqarish, foydalanish, texnik servis ko'rsatish, ta'mirlash sohasida muhandislik hisoblar, modellashtirish, algoritmlar va matematik ta'minotini ishlab chiqish;

– ilmiy-tadqiqot jarayonlari;

– avtomobil transporti sohasida ishlovchi xodimlarni boshqarish, texnologik jihozlar va ularning ekspluatatsiyasi, axborot ta'minot tizimlari va vositalari, avtotransport vositasining ish qobiliyatini tiklash hamda ularni ishlatishning samarali jarayonlari;

- avtomobil transporti tarmoq korxonalarining texnologik jarayonlari;
- tashkilot va korxonalarda zamonoviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan talim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

60712500 - *Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- loyihaviy-konstruktorlik;
- ekspluatatsiya va servis xizmatini ko'rsatish;
- ishlab chiqarish;
- tashkiliy-boshqaruv.

1.2.4. 60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60712500 - *Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy - tadqiqot faoliyatida:

- avtomobil transportidan foydalanish ishlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda, ulardan foydalanish hamda texnik vositalarni, tizimlarini, jarayonlarini, jihozlar va materiallarni standartlashtirish bilan bog'liq tadbirlarda qatnashish;

- avtomobil transporti ekspluatatsiyasini tadqiq qilishda namunaviy metodikalar va texnik vositalarni qo'llay olish;

- avtomobil transporti ekspluatatsiyasi sohasidagi xorijiy va maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rganish;

- ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ishlanmalarni ishlab chiqishda qatnashish;

- zamonaviy mavzular (topshiriqlar) bo'yicha ilmiy texnik ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirish;

- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni tadbiq etishda qatnashish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.*

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

- avtotransport vositalari va texnologik jihozlarning qismlari, detallari va yig'ma birikmalarining loyahasini tizimli yondashuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqishni takomillashtirish;

- avtomobil transporti sohasida tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, axborot va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qila olish;

- avtotransportdan foydalanish jarayonida loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- avtotransport vositalari va texnologik jihozlarni ishchi qismlari parametrlari va ishlash qobiliyatini zamonaviy hamda xorijiy usullar bilan diagnostikalash, sinovlarni o'tkazish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash;

- avtotransport vositalarini ishlab chiqarish va qayta tiklash texnologiyalaridan foydalana bilish;

- transport vositalari va texnologik jihozlarning tuzilishi, texnologik ish jarayonlari, sozlash texnologiyalari, ishga tayyorlash va ulardan foydalana olish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

Ekspluatatsiya va servis xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- avtotransport vositalari va ularning agregat, mexanizm, tizimlari hamda texnologik jihozlardan foydalanish, ularga texnik servis ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish;

- avtotransport vositalari va ularning agregat, mexanizm, tizimlari hamda texnologik jihozlariga texnik servis ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha zamonaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va qo'llash;

- avtotransport vositalari va ularning agregat, mexanizm, tizimlari hamda texnologik jihozlarni sinash, diagnostikalash va kamchiliklarni bartaraf eta bilish;

- jahon tajribalari asosida avtomobil transporti ekspluatatsiyasi texnologik ishchi jarayonlari modellarini ishlab chiqish va tahlil qilishda hisoblash vositalaridan foydalana bilish;

- avtomobil transporti ekspluatatsiyasi jarayonida ishlatiladigan zamonaviy asbob, uskuna, jihozlarni bilish va ularni amalda qo'llay olish;

- avtotransport vositalariga texnik servis xizmati ko'rsatish va ta'mirlash ish sifati ko'rsatkichlarini aniqlash, baholash, xulosalar shakllantirish qobiliyatlariga ega bo'lish;

- inson sog'ligini va uning ishchanlik qobiliyatini saqlash bo'yicha hamda hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

Ishlab chiqarish faoliyatida:

- avtomobil transporti ekspluatatsiyasi bo'yicha ratsional texnologiya va texnologik jihozlarni tanlash, namunaviy texnologik xaritalarni ishlab chiqish; avtotransport vositasi ishchi qismlari va detallarini loyihalashtirish va konstruksiyasini ishlash; ularni yig'ish, sozlash, rostlash ishlarini rejalashtirish va bajarishni tashkillashtirishni hamda chet el dasturlari bilan foydalanib kompyuterda loyihalashni bilish;

- namunaviy texnik servis ko'rsatish va ta'mirlash ishlariga texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

- avtotransport korxonalarini ishini tashkil etishda texnologik jarayonlarni bajarish, maromiga yetkazish va o'zlashtirish;

- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash qobiliyatiga ega bo'lish;

- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

- inson sog'ligini va uning ishchanlik qobiliyatini saqlash bo'yicha hamda mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha usul va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish **qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.**

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- avtotransport vositalari va texnologik jihozlarga texnik servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlari texnologiyasi, texnik vositalardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;

- ishlab chiqarishda hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq

bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish zveno ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasiga, yong'inga, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish **qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.**

2. 60712500 - Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosida kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- muzokaralar, uchrashuvlar, ishbilarmonlik yozishmalarini olib borish va onlayn aloqalarni amalga oshirishni bilish;
- korporativ axborot tizimlarini, statistik tahlil va hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- sohada boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- sohada raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- loyihalar, biznes-rejalar va shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;
- avtomobil transportidan foydalanishni tashkil etish, ularga texnik servis ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha ratsional texnologiya va texnologik jihozlarni tanlash, namunaviy texnologik xaritalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- avtotransport korxonalarini faoliyatini tashkil etishda texnologik jarayonlarni bajarish va o'zlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash qobiliyatiga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmakteligida kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

o'quv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

malakaviy (ishlab chiqarish) amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg'or korxonasi, tashkilot va muassasalari, xorijiy va qo'shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta'lim va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda o'tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o'tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

2.3.1. 60712500-Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5280	176
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	540	18
Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6

2.3.2. 60712500-Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	5280	176	
1.01	O'(R)T1101	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.02	DIN1102	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	KIM1103	Kimyo	120	4	1
1.04	XT1104	Xorijiy til 1,2	240	8	1,2
1.05	FIZ1105	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM1106	Oliy matematika 1,2,3	420	14	1,2,3
1.07	O'EYT1107	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	TTAT1108	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	180	6	1
1.09	MKG1109	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	2
1.10	MS2110	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	3
1.11	SIM2111	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	7
1.12	FAL2112	Falsafa	120	4	3
1.13	EK3113	Ekologiya	120	4	6
1.14	XFX4114	Hayot faoliyati havfsizligi	120	4	8
1.15	NM2115	Nazariy mexanika.	180	6	3
1.16	MQ2116	Materiallar qarshiligi	120	4	4
1.17	MMN.MD3117	Mashina va mexanizmlar nazariyasi. Mashina detallari	300	10	5,6
1.18	EE2118	Elektrotexnika va elektronika	240	8	3
1.19	MKMT2119	Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi	240	8	4,5
1.20	TEQ2120	Transport energetik qurilmalari	300	10	4,5
1.21	TVIEM4121	Transport vositalarida ishlatiladigan ekspluatatsion materiallar	120	4	7
1.22	AEJET2122	Avtomobillarining elektr jihozlari va elektron tizimlari	180	6	4
1.23	INDA3123	Ishochlilik nazariyasi va diagnostika asoslari	120	4	6
1.24	ATES4124	Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi va servisi	360	12	7, 8
1.25	AK2125	Avtomobillar konstruksiyasi	360	12	4, 5
1.26	ATKLJ4126	Avtotransport tarmog'i korxonalarini loyihalash va jihozlash	300	10	7, 8
1.27	JTS1204	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	2
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	
2.00		<i>Tanlov fanlar (7 ta fan)</i>	1200	40	3,5,6,7,8
		Jami	6480	216	
		Malakaviy amaliyot	540	18	2,4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6	8
		Jami	720	24	
		HAMMASI	7200	240	

2.4. Kvalifikatsiya. Muhandis-mexanik.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, ta'limda axborot texnologiyalari, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy-tadqiqot jarayoni avtomobillar, avtomobil transporti, transport vositasi, texnologik jihozlar, ishonchlilik, diagnostika, davriylik, texnik xizmat ko'rsatish, joriy ta'mirlash, texnologik loyihalash, yo'l sharoiti, avtotransport korxonasi.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLGAN:

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor  **O. Abduraxmanov**

2023 yil « _____ »
M.O'.



KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Transport vazirligi**

Vazir o'rinbosari  **I. Abdugafarov**

2023 yil « _____ »
M.O'.



**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**

Direktor  **Sh. Yakubov**

2023 yil « _____ »
M.O'.



"Toshshahartransxizmat" AJ

Boshqaruv raisi  **A. Djurayev**

202_ yil « _____ »
M.O'.



**I. Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti**

Rektor  **S. Turabdjano**

202_ yil « _____ »
M.O'.



Toshkent davlat transport universiteti
60712500 – Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) ta’lim yo’nalishi
bo’yicha malaka talablari va o’quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim
muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o’rtasida
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ___ ” _____ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “Toshshahartransxizmat” Aksiyadorlik jamiyati boshqaruv raisi A.Z.Djurayev, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori S.M.Turabdjano, Toshkent davlat transport universiteti rektori O.K.Abduraxmanovlar birgalikda Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan 60712500-Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) bakalavriat ta’lim yo’nalishining malaka talablari va o’quv reja mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60712500-Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti) bakalavriat ta’lim yo’nalishi malaka talablari hamda o’quv rejasini ishlab chiqilishida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-3775-son qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-son Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog’liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 824-son qaroriga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o’quv rejalarning ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo’yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari o’quv reja, fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo’lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o’quv rejani o’rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

“Toshshahartransxizmat”
Aksiyadorlik jamiyati
Boshqaruv raisi



A.Z. Djurayev

Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika
universiteti rektori



S.M. Turabdjano

Toshkent davlat transport
universiteti rektori



O.K. Abduraxmanov